

Ta'mirlash ishlarini amalga oshirish buyicha
ShARTNOMA № K-1

2022-yil 07- mart

Farg'ona shahri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Fargona shaxar maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan raxbar N.A.Irgasheva (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "FAR QAYUMJON FAYZI" h/k (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar M.Ablahatov ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar:

1. ShARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Fargona shaxar maktabgacha ta'lim bulimi tasarrufidagi 15-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini joriy ta'mirlash loyixa-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

2. ShARTNOMA BAXOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyixa-smeta xujjatlariga asosan QQS ni o'z ichiga olgan xolda jami 231 806 492 (ikki yuz o'ttiz bir million sakkiz yuz olti ming to'rt yuz to'qson ikki ming) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bulganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'lik bajarilgandan so'ng, uzaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» xisob raqamiga uo'tkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlar xajmiga qarab, avans mablaglarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI.

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 20 kun muddatda to'liq yakunlanishi kerak.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yongin xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNI XUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini to'liq xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa-smeta xujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqkdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablagi va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bajarilgan ishlar uchun kafolat muddati 1 (bir) yil.

6. JARIMALARNI QO'LLANILISHI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bulgan ta'mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatini 0.05% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.05% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablaglar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Jarimalar to'lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR XOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshqa yengib belmas kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmasa iqtisodiy masalalar bo'yicha sudi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibda xal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 7-martdan 2022-yil 31-dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, g'aznachilik bo'lim)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'lik korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

9.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

9.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'lik munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

9.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

9.5. Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9. TOMONLARNI HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

«Pudratchi»

“FAR QAYUMJON FAYZI” x/k

Manzil:Fargona shahar A.Navoiy ko'chasi 41b/34 uy

Tel./Faks +998 91 123 10 57

x/r 20 208 000 600 803 142 001

Bank nomi “Turon bank”Farg'ona bo'limi

MFO 00498 STIR 305074600 IFUT(okonx)

«Buyurtmachi»

Fargona shaxar Maktabgacha ta'lim bo'limi

Manzil: Fargona shaxar Nurafshon ko'chasi 15uy

Tel./faks 73 244 91 88

Shhv 100022860304017091100251065

Tashkilotning STIRi 305153264

IFUT(okonx) 85100

Farg'ona shaxri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

x/r 23 402 000 300 100 001 010

Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)

MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining

STIR: 201122919

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**
№ KN5320818475

1. Loyihaning turi: shartnoma K-1
2. Loyihaning nomi: Ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha haqida ("FAR QAYUMJON FAYZI" h/k).
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Farg'ona shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 7-mart kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 7-mart kuni tizimga kiritilgan.
4. Loyiha bo'yicha taklif: Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



F.Jumaboyeva

Rahbar  M. Ablahatov

Buyurtmachi rahbari _____
N.A. Irgasheva



(lavozimi) (F.I.O.)

